



“Ta’rifot” maqolalarning hajmiga ko‘ra tahlili

Davronbek Dilmurod o‘g‘li Abdullayev

Oriental universiteti, Filologiya va tillarni

o‘qitish fakulteti stajyor o‘qituvchisi

Annotatsiya: Sayyid Sharif Jurjoniylar ko‘plab fanlarga oid asarlarga yozgan olim bo‘lib, uning asarlari ichida “Ta’rifot” asari alohida ilmiy qiymatga ega. Ushbu maqolada mazkur terminlar lug‘atiga oid asarning maqolalari hajmiga ko‘ra tahlili o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: ta’riflash, qisqa sharh, lug‘aviy va istilohiy ma’no.

Sayyid Sharif Jurjoniylar “Ta’rifot” asarida ayrim so‘zlarni sharhlashda qisqa sharhlashni afzal ko‘rgan bo‘lsa, ayrim maqolalarni batafsil yoritishni lozim deb bilgan. Qisqa sharhlash ham, keng sharhlash ham o‘ziga xos uslubga, afzalliklarga, shartlarga ega. Qisqa sharhlashda ma’noni to‘la yetkazish vazifasi tursa, keng sharhlashda juda cho‘zilib ketib, natijada ma’nodan uzoqlashib ketishdan ehtiyot bo‘lish talab qilinadi.

Jurjoniylar ko‘plab o‘rinlarda qisqa sharhlardan foydalangan. Misol tariqasida quyidagi misollarni olaylik:

السلب: انتزاع النسبة.

Salb: nisbatni olib qo‘yilishidir¹. Ya’ni mantiq faniga oid ushbu termin bir narsaga beriladigan hukm manfiy bo‘lishini bildiradi.

الكرم: هو الإعطاء بالسهولة.

Karam: osonlik bilan berishdir².

¹ علي بن محمد الجرجاني. التعريفات. دار الريان. 1983. ص 159
² نفس المصدر. ص 236



Ikki-uch so'z bilan yuqoridagidek sharhlash qisqa sharhlashning shartlariga to'liq javob beradi. Shuningdek, ushbu qisqa sharhlarni tushunish o'sha paytdagi olimlarga va tolibi ilmlarga qiyinchilik tug'dirmaganini ham ta'kidlab o'tishimiz kerak.

O'ziga xos tarzda qisqartib sharhlangan terminlarga esa quyidagi namunlarni aytib o'tishimiz mumkin:

الحال المنقلبة: بخلاف ذلك.

O'zgaruvchi holat: buning tekarişi³. Ushbu termin buning teskarisi deb o'zidan oldingisiga ishora qilmoqda:

الحال المؤكدة: هي التي لا ينفك ذو الحال عنها ما دام موجوداً غالباً، نحو: زيد أبوك عطوفاً.

Muakkad (sobit) holat: u holat egasi toki bor ekan undan ajralmaydigan holatdir. Masalan: Zayd, otang mehribondir⁴.

Ko'rib turganimizdek, "o'zgaruvchan holat" termini "sobit holat" terminining ziddi ekanligi aytish bilangina sharhlash bilan kifoylanilgan. Ushbu termin antonimiya bilan izohlangan bo'lsa, navbatdagi sinonimiya bilan ochib berilgan:

المستند: مثل السند.

Mustanad: sanad kabi⁵. Demak, ushbu terminning izohi xuddi "sanad" termining izohi bilan bir xildir:

السند: ما يكون المنع مبنياً عليه، أي ما يكون مصححاً لورود المنع، إما في نفس الأمر أو في زعم السائل.

Sanad: man' etish (inkor) uning ustiga quriladi. Ya'ni u man' etishning olib kelishni to'g'rilaydi. U ishning o'zida yoki so'rovchining da'vosida bo'ladi⁶. Sanad munozara ilmiga mansub termin bo'lib, u man' – inkor etishning asosi hisoblanadi. Unga suyanagan holda munozarachi inkor qiluvchi javobini aytadi.

Ko'rib turganimizdek, muallif qisqa tarzda sharhlashda go'zal mahorat bilan qalab tebratgan. Uni yana الطغيان, السؤال ضمان الرهن, السنة الشمسية, السرمدى, الرضاع, الحضانة, أم الكتاب

³ نفس المصدر. ص 111

⁴ نفس المصدر. ص 111

⁵ علي بن محمد الجرجاني. التعريفات. ص 272

⁶ نفس المصدر. ص 161



فوائد المقايضة va المعصية, المباح, العصيان ,
foydalanganini ko'rishimiz mumkin⁷.

Endi terminlarning muallif tomonidan keng sharhlangan holatlariga e'tiborimizni qaratamiz. Muallif ko'p o'rinlarda ilmiy moddani aniq, tushunarli bo'lishiga va mavhum va mujmallikdan chetlanishga haris bo'lgan. Shu boisdan, ba'zi terminlarni avval lug'aviy, so'ng istilohiy ma'nolarini, agar u bir qancha fanlarda ishlatilsa, turli fanlardagi ma'nolarini, shuningdek, misollarga ehtiyoj sezilsa, bir va bir necha misollarni keltirganini ko'ramiz.

Bir terminning bir qancha fandagi ma'nolarini keltirishiga quyidagi misollarni keltirib o'tamiz:

العلّة: لغةً: عبارة عن معنى يحلّ بالمحلّ فيتنّغير به حال المحلّ بلا اختيار، ومنه يسمّى المرض، علّة، لأنّه بحلوله يتّغير حال الشخص من القوة إلى الضعف، وقيل: هي ما يتوقّف عليه وجود شيء ويكون خارجاً مؤثراً فيه. وشريعةً: عبارة عما يجب الحكم به معه، والعلّة في العروض: التّغيير في الأجزاء الثمانية، إذا كان في العروض والضرب.

Illat: lug'atda bir o'ringa tushadigan ma'nonini anglatadi. Shunda u tushgan o'rinning holi beixtiyor o'zgaradi. Shuning uchun ham kasallik illat deyiladi, chunki u tushishi bilan shaxsning holati quvvatdan zaiflikka o'zgaradi. **Yana** u bir narsaning mavjudligi unga kelib to'xtaladigan narsadir. Shunda illat u narsadan tashqarida turib ta'sir qiladi. **Shariatda:** bir narsaga hukm qilinishi u bilan bo'lishi kerak bo'lgan narsadir. **Illat aruzda esa:** agar aruz va zarbda bo'lsa, sakkiz juzvdagi o'zgarishdir⁸.

Ko'rib turganimizdek, illatning avval lug'aviy ma'nosi sharhlar va misollar bilan keltirildi, so'ngra esa uning istilohiy ma'nosiga to'xtalindi. Keyin esa uning shariatda va aruzda keladigan ma'nolari yoritilib berildi.

الوقف: في اللغة: الحبس، وفي العروض: إسكان الحرف السابع المتحرك، كإسكان تاء مفعولات ليبقى:

⁷منصور علي عبد العزيز. الجهود الاصطلاحية المعجمية في كتاب التعريفات للجرجاني. ليبقى. جامعة طرابلس. كلية اللغات الدراسات العليا. قسم اللغة العربية. 2015. ص 35
⁸علي بن محمد الجرجاني. التعريفات. ص 201



مفعولات، ويسمى: موقوفاً.

وفي الشرع: حبس العين على ملك الواقف والتصدق بالمنفعة، عند أبي حنيفة فيجوز رجوعه، وعندهما: حبس العين عن التملك مع التصديق بمنفعتها، فتكون العين زائلة إلى ملك الله تعالى من وجه، والوقف في القراءة: قطع الكلمة عما بعدها.

Vaqf: *lug'atda hibs, ushlab turish degani. Aruzda esa u yettinchi harakatli harfni sukunli qilishdir. Masalan, "maf'ulotu"ni "maf'ulot" qilish kabi. Shunda ushbu so'z mavquf deyiladi.*

Shariatda esa, vaqf asli vaqf qiluvchining mulkida ushlab turilgan holda mulk foydasidan sadaqa qilishdir, bu Abu Hanifa nazdidadir va unga ko'ra uni qaytib olishi mumkin bo'ladi. Ikki imomning nazdida esa aslni mulk qilishdan ushlab turgan holda foydasidan sadaqa qilishdir. Shunda asl Allohning mulkiga aylanib ketadigan bo'ladi.

Qiroatda esa vaqf: *so'zni o'zidan keyingisidan uzishdir*⁹.

Demak, vaqf lug'atda to'xtatib turish, ushlab turish degan ma'nolarga ega bo'lib, ushbu ma'nodan aruz, fiqh va qiroat ilmlarida maxsus terminlar kelib chiqqan ekan. Shu kabi bir terminni bir qancha fanga ko'ra sharhlanganini biz "Ta'rifot"da قصر, غصب, نقض "Ta'rifot"da kabi terminlarda ko'rishimiz mumkin¹⁰.

Asarda qo'llanilgan umumiylikdan so'ng xoslash va ihtiros (ma'no noto'g'ri anglashinmasligi uchun beriladigan izohga quyidagi terminni misol qilishimiz mumkin.

التابع: هو كل ثانٍ بإعراب سابقة من جهة واحدة. وخرج بهذا القيد خبر المبتدأ، والمفعول الثاني، والمفعول الثالث، من الباب: علمت، فإن العامل في هذه الأشياء لا يعمل من جهة واحدة، وهو خمسة أضرب: تأكيد، وصفة، وبدل، وعطف بيان، وعطف بحرف.

Tobe': *o'zidan oldingi so'zning e'robida bir tarafdin bo'luvchi har ikkinchi so'zdir.*

Ushbu qayd bilan muhtadoning xabari, bobidagi ikkinchi maf'ul va uchinchi maf'ul

⁹ نفس المصدر. ص 328
¹⁰ منصور علي عبد العزيز. الجهود الاصطلاحية المعجمية في كتاب التعريفات للجراني. ليبيا. جامعة طرابلس. كلية اللغات الدراسات العليا. قسم اللغة العربية. 2015. ص 36-37



chiqib ketdi, chunki bu narsalarda omil bir tarafdin ta'sir ko'rsatmaydi. U besh turli bo'ladi: ta'kid, sifat, badal, bayon atfi va harf bilan atf¹¹.

Yuqoridagi ta'rifda tobe' - o'zidan oldingi so'z bilan sintaktik jihatdan moslashuvchi so'z bo'lagi haqida so'z bordi. Ta'rifning ichida bir tarafdin degan maxsus qayd ishlatilishining sababi, arab tilida tobe'lar o'zidan oldingi so'zga bog'liq ravishda grammatik ko'rsatkichlarga ega bo'ladi. Tobe' bo'lmagan, ammo o'zidan oldingi so'zning grammatik ko'rsatkichlariga ega so'z bo'laklari esa ushbu bir tarafdin qaydi natijasida ushbu tarifdan chetga chiqdi.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, ayrim terminlar sharhida muallif ko'plab ta'riflarni keltirgan. Misol tariqasida tasavvuf terminini olaylik:

التصوف: الوقوف مع الآداب الشرعية ظاهراً، فيرى حكمها من الظاهر في الباطن، وباطناً، فيرى حكمها من الباطن في الظاهر، فيحصل للمتأدب بالحكمين كمالاً، وقيل: مذهب كله جد. فلا يخلطونه بشيء من الهزل. وقيل: تصفية القلب عن موافقة البرية، ومفارقة الأخلاق الطبيعية، وإخماد صفات البشرية، ومجانبة الدعاوى النفسانية، ومنازلة الصفات الروحانية، والتعلق بعلوم الحقيقة، واستعمال ما هو أولى على السرمدية، والنصح لجميع الأمة، والوفاء لله تعالى على الحقيقة، واتباع رسول الله ﷺ في الشريعة، وقيل: ترك الاختيار، وقيل: بذل المجهود. والأنس بالمعبود، وقيل: حفظ حواسك من مراعاة أنفاسك، وقيل: الإعراض عن الاعتراض، وقيل: هو صفاء المعاملة مع الله تعالى، وأصله التفرغ عن الدنيا، وقيل: الصبر تحت الأمر والنهي، وقيل: خدمة التشرف، وترك التكلف، واستعمال التظرف، وقيل: الأخذ بالحقائق والكلام بالدقائق والإيأس مما في أيدي الخلق.

Tasavvuf: *zohiran shar'iy odoblarda turishdir. Shunda ularning hukmi zohirdan botinda ko'rinadi va botindan zohirda ko'rinadi. Shunda odoblanuvchiga ikki hukm bilan kamolot hosil bo'ladi.*

Yana, bari jiddiyat bo'lgan mazhab, unga hazldan biror narsa aralashmaydi, deyilgan. Yana, qalbni xaloyiq roziligidan poklash, tabiiy axloqlardan ayrilish, bashariy sifatlarini o'chirish, nafsoniy da'volardan chetlanish va ruhoniyy sifatlarsohibi bo'lish, haqiqat ilmlariga bog'lanish, abadiyatga avloroq narsani qo'llash, barcha ummatga nasihatda bo'lish, Alloh taologa haqiqatda vafo qilish, Rasululloh sollalohu alayhi

¹¹علي بن محمد الجرجاني. التعريفات. ص 71



vasallamga shariatda ergashish, deyilgan. Shuningdek, u ixtiyorni tark etish deyilgan. Yana, bor kuchni sarflash va Ma'bud bilan unsda birga bo'lish deyilgan.

Yana, hislaringni nafaslariningni rioya qilishidan saqlashidir, deyilgan. Yana, e'tirozdan yuz o'g'rishdir, deyilgan. Yana, Alloh bilan muomalaning sof bo'lishidir, uning asli dunyodan forig' bo'lishdir, deyilgan. Yana, buyuriq va qaytariqqa sabr qilishdir, deyilgan. Yana, sharaflanishga xizmat, takallufni tark etish va zukkolikni qo'llash deyilgan. Yana, haqiqatlarni olish, daqiq narsalarni gapirish va xaloyiq qo'lidagi narsadan umid uzishdir, deyilgan¹².

Ko'rib turganimizdek, birgina tasavvuf terminiga shuncha ta'rif keltirilgan. Muallif ta'riflarni keltirishda, وقيل – “yana deyilgan” iborasini qo'llagan. Shuningdek, tafakkur, aql va taqvo kabi istilohlarda ham muallifning batafsil sharhlaganini shohidi bo'lishimiz mumkin¹³.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. علي بن محمد الجرجاني. التعريفات. دار الريان.
2. منصور علي عبد العزيز. الجهود الاصطلاحية المعجمية في كتاب التعريفات للجرجاني. ليبيا. جامعة طرابلس. كلية اللغات الدراسات العليا. قسم اللغة العربية. 2015.

¹² علي بن محمد الجرجاني. التعريفات. ص 83
¹³ منصور علي عبد العزيز. الجهود الاصطلاحية المعجمية في كتاب التعريفات للجرجاني. ليبيا. جامعة طرابلس. كلية اللغات الدراسات العليا. قسم اللغة العربية. 2015. ص 36-37